HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING OPTIMAL USULLARI

Shixova Inobat Omonovna
Xorazm viloyati Pedagogik Mahorat Markazi katta o‘qituvchisi,psixologiya bo‘yicha falsafa fanlari doktori(PhD),telefon:91-428-64-32.
inobat@gmail.com
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23690965

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari, pedagogik muammolari va samarali usullari,mantiqiy tafakkurning tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, xulosa chiqarish kabi tarkibiy qismlari, muammoli ta’lim, savol-javob, muammoli vaziyatlar yaratish, mantiqiy masalalar, munozaralarning o‘quvchilar fikrlash faoliyatiga ta’siri haqida so‘z yuritilgan.
Kalit so‘zlar: mantiqiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, bilish faoliyati, muammoli ta’lim, tahlil, sintez, umumlashtirish, mustaqil fikrlash, pedagogik,interfaol texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы развития логического мышления в образовательном процессе, педагогические проблемы и эффективные методы, компоненты логического мышления, такие как анализ, сравнение, обобщение, классификация, определение причинно-следственных связей и формулирование выводов, проблемно-ориентированное обучение, вопросы и ответы, создание проблемных ситуаций, логические задачи и влияние дискуссий на мышление учащихся.
Ключевые слова: логическое мышление, критическое мышление, познавательная деятельность, проблемно-ориентированное обучение, анализ, синтез, обобщение, самостоятельное мышление, педагогические, интерактивные технологии.

Abstract. This article discusses the theoretical foundations, pedagogical challenges, and effective methods for developing logical thinking within the educational process. It examines the components of logical thinking—such as analyzing, comparing, generalizing, classifying, identifying cause-and-effect relationships, and drawing conclusions—as well as the impact of approaches like problem-based learning, questioning, the creation of problematic situations, logical puzzles, and debates on students' cognitive activity.
Keywords: logical thinking, critical thinking, cognitive activity, problem-based learning, analysis, synthesis, generalization, independent thinking, pedagogical, interactive technologies.

Bugungi kun ta’limiing muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish emas ularda mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish, muammoning optimal yechimini topishdan iboratdir. Kundalik axborotlarning haddan ziyod ortib borishi natijasida insonlardan ma’lumotlarni shunchaki eslab qolish emas, balki ularning ishonchliligini baholash, o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va amaliy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash ehtiyoji kelib chiqmoqda. Bunda, ayniqsa, mantiqiy tafakkurning o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Insonda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar tafakkur orqali vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi.

Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo‘ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o‘zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti- harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida
o‘zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiyligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi.
Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bavosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar, munosabatlar,
xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi,
rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko‘rish imkoniyatiga ega. Mantiqiy tafakkur tushunchasi – bu insonning o‘z fikrlash jarayonini mantiqiy qonuniyatlar va qoidalarga asoslangan holda tashkil etishi, tahlil va xulosa chiqarish qobiliyatidir. Bu tafakkur turi insonlarga muammolarni hal qilish, asosli qarorlar qabul qilish va bilimlarni tizimli o‘zlashtirish imkonini beradi.

Mantiqiy tafakkur insonning bilish faoliyatida muhim o‘rin tutadi. U insonning o‘quv, kasbiy va kundalik hayotdagi muammolarni hal etish qobiliyati bilan uzviy bog‘liq.Mantiqiy tafakkur orqali narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni anglanadi, dalillar tahlil qilinadi, fikrlar izchil bayon etiladi va xulosaga kelinadi. Bu jarayon o‘z-o‘zidan to‘liq shakllanmaydi, balki, muntazam mashq, uzluksiz ta’lim, muammoli vaziyatlar va fikrlash faoliyatini tahlil qilish orqali rivojlanadi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda faqat bilim hajmini oshirish emas, balki bilim bilan ishlash usullarini shakllantirish ham zarurligini ko‘rsatadi. Buning isboti sifatida OECDning PISA 2022 natijalariga oid hisobotida o‘quvchilarning turli nuqtayi nazarlarni hisobga olishi, o‘z fikrini qayta ko‘rib chiqishi va yangi bilimlarni avvalgi bilimlar bilan bog‘lashi muhim o‘quv strategiyalari sifatida ko‘rsatilgan. Bundan esa, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik jihatdan asoslangan va amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan optimal usullarini aniqlash dolzarb ilmiy-metodik masalalardan biri ekanligini yaqqol namoyon bo‘ladi.

Mantiqiy tafakkurning asosiy operatsiyalari quyidagilardan iborat:

1. **Tahlil** — murakkab hodisa yoki masalani tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganishni nazarda tutadi.
2. **Sintez** — alohida qismlar va ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lab, yaxlit tasavvur hosil qilishdan iborat.
3. **Taqqoslash** — obyekt va hodisalarning o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlashdan iborat.
4. **Umumlashtirish** — bir nechta misol yoki hodisaga xos umumiy belgilarni aniqlashdan iborat.
5. **Tasniflash** — obyektlarni muayyan mezonlar asosida guruhlarga ajratishdan iborat.
6. **Abstraksiyalash** — muhim belgilarni ajratib, ikkinchi darajali xususiyatlardan vaqtincha chekinishdan iborat.
7. **Xulosa chiqarish** — mavjud dalillar va fikrlar o‘rtasidagi munosabatlardan yangi hukm hosil qilishga asoslangan.

Mazkur operatsiyalar o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi. Masalan, matematik masalani yechishda o‘quvchi avval shartni tahlil qiladi, kerakli ma’lumotlarni ajratadi, ular o‘rtasidagi munosabatni

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

aniqlaydi va yechimni asoslaydi. Matnni tahlil qilishda esa asosiy g‘oya, dalillar, muallif xulosasi va sabab-oqibat aloqalari aniqlanadi.

Mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan bir qator omillar mavjud bo‘lib , o‘quv jarayonida tayyor ma’lumotlarni eslab qolishga ortiqcha e’tibor qaratilishi mustaqil fikrlash imkoniyatlarini cheklaydi, topshiriqlarda yagona javobni topish asosiy maqsadga aylanib, javobga qanday fikrlash yo‘li orqali erishilganiga e’tibor berilmaydi. Natijada o‘quvchining mulohaza yuritish jarayoni izdan chiqadi.Xato qilishdan qo‘rqish holati o‘quvchilarda taxmin bildirish, savol berish va o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish qobiliyatii pasaytiradi. Buni yechimi sifatida muammoli ta’limdan foydalanish muhimdir.

Muammoli ta’limda o‘quvchini tayyor javobni qabul qiluvchi emas, balki muammoni anglaydigan, taxmin ilgari suradigan, dalillarni tekshiradigan va yechim izlaydigan faol ishtirokchiga aylantiradi.Bunda

- muammoli vaziyatni taqdim etish;
- muammoning mohiyatini aniqlash;
- ehtimoliy yechimlarni taklif qilish;
- taxminlarni dalillar bilan tekshirish;
- eng asosli xulosani tanlash;
- olingan natijani umumlashtirish.

Muammoli ta’limda faqat to‘g‘ri javobni topish emas, balki o‘quvchining fikrini dalillar asosida shakllantirish muhim bo‘lib o‘qituvchi tomonidan beriladigan yo‘naltiruvchi savollar, tegishli materiallar va zarur yordam bilan kuchayishi mumkin.

Mantiqiy masalalar tahlil, taqqoslash, qonuniyatni aniqlash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini muntazam mashq qilish imkonini beradi.Maqsadli savollar o‘quvchining fikrlash jarayonini faollashtiradi. Ayniqsa, faqat qisqa faktik javobni talab qilmaydigan, izohlash va dalillashga undaydigan savollar muhimdir.

O‘qituvchi suhbatda javobni darhol e’lon qilishdan ko‘ra, o‘quvchini mustaqil mulohaza yuritishga yo‘naltirishi maqsadga muvofiq.

Munozara o‘quvchilarga o‘z qarashlarini bayon etish, boshqa fikrlarni tinglash va dalillarni solishtirish imkonini beradi. Hamkorlikdagi topshiriqlar esa muammoni turli nuqtayi nazarlardan ko‘rib chiqishga yordam beradi.Bunda maqsad bahsda g‘olib chiqish emas, balki fikrlarni dalillar asosida baholash va muammoning murakkabligini anglashdan iborat.

Tadqiqotga asoslangan ta’lim o‘quvchini savol qo‘yish, ma’lumot to‘plash, taxmin ishlab chiqish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarishga jalb etadi.

Agar muayyan metodning samaradorligi ilmiy tadqiqot sifatida isbotlanishi ko‘zda tutilsa, o‘quvchilar guruhi, tadqiqot muddati, baholash vositalari va natijalarni tahlil qilish tartibi oldindan belgilanishi kerak.

Maktab yoki boshqa ta’lim muassasasida quyidagi bosqichli modeldan foydalanish mumkin:

Birinchi bosqich — diagnostika. O‘quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash, qonuniyatni aniqlash va fikrni asoslash ko‘nikmalari dastlabki topshiriqlar yordamida aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich — maqsadli mashq. O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos mantiqiy masalalar, muammoli savollar va taqqoslash topshiriqlari beriladi.

Uchinchi bosqich — mustaqil izlanish. O‘quvchilar muammoli vaziyatni tahlil qiladi, taxmin ilgari suradi va yechimni dalillar bilan asoslaydi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

To‘rtinchi bosqich — hamkorlik va muhokama. O‘quvchilar o‘z yechimlarini taqdim etadi, boshqa yechimlarni tahlil qiladi va muqobil qarashlarni baholaydi.

Beshinchi bosqich — refleksiya va baholash. Dastlabki va yakuniy natijalar taqqoslanadi, qiyinchiliklar aniqlanadi hamda keyingi ta’limiy vazifalar belgilanadi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish ta’limning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi, mustaqil qaror qabul qilishi va muammolarni asosli hal etishida muhim o‘rin tutadi. Mazkur qobiliyatni shakllantirish uchun faqat nazariy ma’lumotlarni o‘rgatish yetarli emas; o‘quvchilarni muntazam ravishda tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, taxmin ilgari surish va dalillar asosida xulosa chiqarishga jalb etish zarur.

Tahlil qilingan pedagogik yondashuvlar orasida muammoli ta’lim, mantiqiy masalalar, maqsadli savol-javob, munozara, tadqiqotga asoslangan ta’lim va refleksiya alohida ahamiyatga ega. Biroq ularning samaradorligi ta’lim maqsadi, o‘quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, topshiriqlarning mazmuni hamda o‘qituvchi tomonidan beriladigan yo‘naltiruvchi yordamga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Хрестоматия по общей психологии. Психология мышления /под ред.Ю.Б. Гиппенрейтер, В.В.Петухова. – М.: Изд-во МГУ, 1981.
2. Platonov K.K. Qiziqarli psixologiya.T.,”O‘qituvchi”. 1971,
3. Karimov B.X, Qalandarov A.D. Sonlar falsafasi. “Buxoro” nashriyoti.2010.
4. Kurbanova G.N. Talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviyma’ruza mashg‘ulotlarining ahamiyati // Биология и интегративная медицина. 2021. №2
5. Kurbanova G.N. Kasbiy pedagogika. Darslik-2021